



HUMAN
SCIENCES.UZ

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2025

1-JILD | 2-SON

HUMANSIENCES.UZ

№ 2 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdukarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: xurdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
O'zbekiston.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

07.00.00-TARIX FANLARI

Latipov Xursandbek

XIVA XONLIGIDA “XONBOZI DAVRI”5-11

Qodirov Najmiddin, O'tanov Normo'min

O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY
ASOSLARINI SHAKLLANISHI..... 12-22

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI

Rustamova Sayyora, Abdulhakimova Mohlaroy

TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA TASHKILIIY MADANIYATNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI 23-29

09.00.00- FALSAFA FANLARI

Yazdonov Ulugbek

ZAMONAVIIY DUNYO DRAYVERI SIFATIDA KIRIB KELGAN SUN'IY INTELLEKT VA UNING
RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI..... 30-34

Zakirov Shakirdjan, Djuraev Avazbek

THE ROLE OF INTERETHNIC HARMONY IN STRENGTHENING SOCIAL STABILITY IN
UZBEKISTAN 35-42

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI

Akhrorova Manzura

THE INTERPRETATION OF INNER SUFFERING AND SELF-SACRIFICE IN THE COMPARISON
OF HAMLET AND FARHOD..... 43-46

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI

Usmonqulov Jo'rabek

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA OLIY TA'LIMDA IJODKORLIK VA
TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH..... 47-52

Jumaboev Nabi

POSSIBILITIES OF USING THE AESTHETIC HERITAGE OF ORIENTAL THINKERS IN YOUTH
EDUCATION 53-59

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Elmurodov Faxriddin

ELEKTORAL MADANIYAT VA UNING JAMIYAT SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI..... 60-65

09.00.00- FALSAFA FANLARI – PHILOSOPHICAL SCIENCES*Article / Original Paper***ZAMONAVIY DUNYO DRAYVERI SIFATIDA KIRIB KELGAN SUN'IY INTELEKT VA UNING RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI****Yazdonov Ulugbek Tashmurotovich**Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti,
falsafa fanlar doktori, professorEmail: ulugbek.dsc@gmail.com

Tel: +998 99 597-90-08

ORCID: 0000-0001-9708-202X

Annotatsiya. Ushbu maqolada virtual makon derayveri sifatida qaror topib borayotgan sun'iy intellekt tushunchasiga ijtimoiy falsafiy yondashuvda qaralib, uning rivojlanish evolyutsiyasini oddiylikdan murakkablikka, u orqali umumiylikka o'tib borish tendensiyasi klassifikatsiya qilinadi. Tadqiqot jarayonida sun'iy intellekt zamonaviy texnika va ilm-fan taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlaridan biri ekanligi, uning inson kognitiv faoliyatini texnologik vositalar orqali modellashtirilgan qismiga aloqadorligi ochiqqlanadi. Shuningdek, SI evolyutsiyasi bir necha bosqichlarda shakllanganligi, har bir bosqich texnologik imkoniyatlarning kengayishi, hisoblash quvvatini ortishi va nazariy paradigmalarning chuqurlashuviga bog'ligi isbotlanadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, Sining rivojlanish evolyutsiyasi, inson kognitivligi, texnologik vositalar, rivojlanish tendensiyalari.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE, WHICH HAS ENTERED AS A DRIVER OF THE MODERN WORLD, AND ITS EVOLUTION OF DEVELOPMENT**Ulugbek Tashmurotovich Yazdonov**Samarkand Agroinnovation and Researchs University,
Doctor of Philosophy, Professor

Annotation. This article examines the concept of artificial intelligence, which is gaining ground as a driver of virtual space, from a socio-philosophical approach, classifying its development evolution from simplicity to complexity, and through it to generality. In the course of the research, it is revealed that artificial intelligence is one of the most important directions of modern technical and scientific development, its connection with the part of human cognitive activity modeled by technological means. It is also proved that the evolution of AI was formed in several stages, each stage being associated with the expansion of technological capabilities, an increase in computing power, and the deepening of theoretical paradigms.

Keywords: artificial intelligence, evolution of AI development, human cognition, technological tools, development trends.

Kirish. Sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy dunyoni boshqarishda asosiy drayver sifatida barcha sohalararo integratsiyalashuvni tashkil etib, o'zining ko'p qirraliligi, integrativligi bilan namoyon bo'layotganligi masalaning bir tomoni bo'lsa, uning ilmiy asoslangan tizim ekanligi, texnik, huquqiy, ijtimoiy va axloqiy omillarga ta'siri alohida rakursda qaralmoqda. Shu jihatdan bu yo'nalishdagi amaliy jarayonlarni ko'rib shiqish, ularni

takomillashtirish mexanizmi ustida samarali faoliyat olib borish muammosi o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Umuman olganda bugungi ilmiy jamoatchilik oldida sun'iy intellekt bilan bog'liq ko'plab masalalar yechimini kutib turibdi. Masalan, SI tizimlarining xavfsiz, shaffof, mas'uliyatli va barqaror ishlashini ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar juda kam bo'lib, borlari ham tartibga keltirilmagan. Demak, avvalo uning rivojlanish evolyutsiyasini chuqur o'rganish orqali muammoning mohiyatini anglash mumkin. Shu jihatdan ushbu tadqiqotda SI tizimining rivojlanish evolyutsiyasi analiz va sintez uslubida o'rganilib, natijalar o'rtasidagi muvofiqlik ko'rsatiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Matti Mäntymäki, Matti Minkkinen, Teemu Birkstedt va Mika Viljanen kabi tadqiqotchilar SI – faqat “texnologiya yoki algoritm” emas, balki u tizimli va multi-qirrali (texnik, tashkilot, huquqiy, etik) boshqaruvni taqozo qiladigan “jamiyat resursi” tushunchasini ilmiy muomilaga kiritib, asosiy e'tiborini etik prinsiplar, qonunlar va jamiyatning talablari (ekologik, ijtimoiy muhit) konsepsiyasida ko'rsatilib, uni bevosita amaliyotga tatbiq qilish zarurati ilgari suriladi. Ular ilgari surgan g'oyalar strukturaviy modellash, regression tahlili metodlari asosida ishlab chiqilgan[1; 201-205-b]. Ian W. Eisenberg, Lusía Gamboa, Eli Shermanlar SI ni anglashda ko'p xillik boshqaruv tizimlariga (risk-menejment, normativ-huquqiy, texnik, operatsion) murojaat etib, funksional “kontrollar” to'plamini taklif etadi. Ya'ni, bitta integral ramka (framework) orqali turli risk, qonunchilik va operatsion talablarga javob berish mumkinligi ustida amaliyot olib boradi. Ular qo'llagan asosiy metodlarga case study, regulatoriy tahlil va product-policy kabilar kiradi[2; 97-103-b]. Alan Turing yangi texnologik mashina tafakkuri va inson fikrlashi o'rtasidagi mantiqiy yaqinlashuv imkoniyatlari, o'zaro ta'sir chegaralari ko'rib chiqilgan[3; 23-65-b]. Herbert Simon va Allen Newell tomonidan inson fikrlash jarayonini simulyatsiya qilishning kognitiv arxitekturasini ishlab chiqilib, uning konseptual asosi (GPS, Soar) yaratilgan[4; 180-189-b]. Norbert Wiener inson va sun'iy intellekt o'rtasidagi o'zaro aloqalarni samarali boshqaruvini teskari aloqa nazariyasi orqali tadqiq etib, inson-texnika tizimlarida xavfsiz boshqaruv konsepsiyasini ishlab chiqqan[5; 55-61-b]. Luciano Floridi axborot falsafasi nazariyasini ilgari surib, inson va raqamli agentlar o'rtasidagi munosabat misolida inson va sun'iy intellekt aloqadorligi ochiqlashga urinadi[6; 100-109-b]. Bu tadqiqotlarda muammoning umumiy jihatlari ko'rib o'tilganligi bois, ushbu tadqiqotda SI texnologiyalariga faqat texnik vosita sifatida emas, balki ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy tizimlarni o'zgartiradigan kompleks fenomen sifatidagi boshqarish imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi.

Natijalar va muhokama. Ilm-fan, texnologiya va axborot sohasidagi inqilobiy yutuqlar tufayli endi sun'iy intellekt nafaqat inson tomonidan berilgan buyruqlarni bajaradigan bo'ldi, balki o'z-o'zini rivojlantirish darajasiga chiqib, turli masalalarni o'rganuvchi, tahlil qiluvchi, kerak bo'lsa mustaqil qarorlar qabul qiluvchilik ko'nikmasiga chiqdi. Ular hatto ijodiy faoliyat bilan ham shug'ullanish darajasiga yetmoqda. Shubhasiz, bu hodisa insoniyatning texnologiyalar bilan o'zaro munosabatini tubdan o'zgartirmoqda. Shu sababli, bugun sun'iy intellekt (SI) va insoniylik o'rtasidagi munosabatlar masalasi eng ko'p o'rganiladigan mavzular qatoriga chiqdi. Chunki, qisqa vaqt ichida sun'iy intellekt ijtimoiy hayotimizning tarkibiy qismiga aylanib qoldi.

Endilikda *sun'iy intellekt* – jamiyat taraqqiyotini jadallashtirish bilan birga, yangi ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatni ham shakllantirmoqda. Bu uning jamiyatdagi o'rnini faqat texnologik jihatdan emas, balki insonparvarlik va ma'naviy nuqtai nazardan ham tadqiq etishga tabiiy ehtiyoj tug'dirmoqda.

Sun'iy intellekt tushunchasi ilk bor 1956-yilda Djon Makkarti tomonidan Dartmouth Conference (Dartmut konferensiyasi)da mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida ilmiy muomalaga kiritilgan. Bu fenomenga keyingi o'ttiz yil davomida mustaqil texnologik yutuq sifatida qaralib kelingan bo'lsada, uning mavqei bugungi darajada emas edi. Ammo bugun ushbu texnologiya ilovalar orqali hayotimizning barcha sohalarida keng tarqalib ulgurdi. Masalan, tibbiyot sohasida sun'iy intellekt katta inqilob yasamoqda. AI yordamida rentgen, MRT, KT kabi tibbiy tasvirlarni aniqlik bilan tahlil qilish, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, individual dori-darmonlarni tayinlash imkoniyati yaratildi. Google DeepMind kompaniyasining "AlphaFold" loyihasi oqsil tuzilmalarini aniqlash orqali sog'liqni saqlashda genetik kasalliklar bilan kurashishda inqilobiy yutuqlarga erishdi. Shuningdek, AI virtual hamshiralar va sog'liq monitoringi xizmatlarida bemorlar holatini real vaqt rejimida kuzatib borib[7; 2-3-b], tibbiy xodimlarga katta amaliy ko'makchi bo'lmoqda.

Biznes sohasini oladigan bo'lsak, sun'iy intellekt avtomatlashtirilgan xizmat ko'rsatish tizimlari orqali mijozlar bilan aloqa, ma'lumotlarni tahlil qilish, bozordagi tendensiyalarni aniqlash, logistikani boshqarish, marketing kompaniyalarini optimallashtirish va hatto mahsulot dizaynini taklif qilishda faol ishlatilmoqda. AI asosidagi chatbotlar kompaniyalar mijozlariga 24/7 xizmat ko'rsatishga imkon beradi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt moliyaviy xizmatlarda – kredit reytingi, firibgarlikni aniqlash, investitsiya strategiyalarini yaratishda keng qo'llanilmoqda. Yoki ta'lim sohasida ham katta imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Jumladan, sun'iy intellekt yordamida shaxsga moslashtirilgan ta'lim (personalized learning), AI yordamida o'quvchilarning bilim darajasini baholash va individual o'quv rejalarini tuzishga imkon bermoqda. Platformalar (masalan, Coursera, Khan Academy) AI yordamida foydalanuvchilarga kerakli darslarni, topshiriqlarni va savol-javoblarni tavsiya qilmoqda. O'quvchilarning muvaffaqiyatsiz joylarini aniqlab, ularga mos metodlarni taklif etayotganligi o'lkan yutuqdir.

Bir so'z bilan aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalari hayotimizning barcha qismiga tobora chuqur kirib bormoqdaki, u bizga qulaylik, tezlik, samaradorlik va sifatli xizmatlar olib kelayotganligi bilan ahamiyatlidir[8; 17-21-b]. Shu bilan birga, bu texnologiyalar inson faoliyatining ko'plab jihatlarini yangidan o'ylab ko'rishga ham undamoqda. Masalan, sun'iy intellektning hayotimizdagi ta'sirini boshqarish, uning salbiy oqibatlaridan himoyalanihga qaratilgan real mexanizm hanuz ishlab chiqilgani yo'q. Aslida, bu texnologiyani hayotimizga kiritishdan oldin ongli va tartibga solingan yondashuvlarni joriy etishimiz kerak edi.

Birgina misol, ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatiga e'tibor beramiz, *Sun'iy intellekt* – tezkor hisoblash muhitida algoritmlar yaratish va qo'llash orqali insonning aql-idrok jarayonlariga taqlid qilishga asoslanadi[9; 196-198-b]. Ushbu universal ta'rifga qo'shimcha qilib o'tish mumkinki, *sun'iy intellekt* – muayyan vazifalarni bajarishda inson xatti-harakatiga taqlid qilishga qodir bo'lgan tizim yoki texnologiya bo'lsada, ammo vaqt o'tishi, uning ma'lumotlar bazasi boyishi natijasida asta-sekin mukammallashib boradi. Shu tariqa uni formati ham, funksiyasi ham takomillashib, jamiyatning barcha sohalarida hukmronlik qilish bosqichiga o'tadi. Chunki, har bir insonni o'zi bajarishi kerak bo'lgan yagona o'zgarmas

vazifasi bor, bu – uning fikrlash qobiliyati desak, u (ya'ni inson) aynan shu qobiliyatini ishlatishga doim o'ta dangasalik qilib kelgan[10; 4-b]. Umuman olganda, bizga yoqmaydigan vazifamizga "ko'makchi" sifatida yaratilgan sun'iy intellekt, tez orada bizni boshqarishga o'tishiga shubha yo'q.

Demak, sun'iy intellektni insoniyatga tahdidi shu tarzda davom etsa, vaqt o'tishi bilan AI nazoratdan chiqib, kelajakda inson aqlidan ustun tizimlar yaratilishiga olib keladi. Bu insoniyat uchun xavf tug'dirishi aniq. Chunki, Elon Mask, Stephen Hawking va boshqa olimlar bunday holatga ehtiyotkorlik bilan yondashishga chaqirmoqda[11; 2-3-b]. Ya'ni sun'iy intellekt o'zini o'zi rivojlantira oladigan darajaga yetsa, uning oqibatlarini bashorat qilish mumkin bo'lmaydigan holatlar, jarayonlar yuzaga kelishi mumkin.

Bundan xulosa shuki, sun'iy intellekt nafaqat zarurat, balki undan himoyalaniish zarurati hamdir. Ya'ni, texnologik taraqqiyot ijobiy imkoniyatlarni yaratgani singari, noto'g'ri boshqarilganda yoki ehtiyotsizlik bilan yondashganda u insoniyatga tahdid tug'diruvchi vositaga aylanishi mumkin. Bunga quyidagi misollarni keltirish o'rinli bo'ladi:

1) ish o'rinlarining yo'qolishi global muammo sifatida sun'iy intellektning hissasiga to'g'ri kelib qoladi. Masalan, AI yordamida avtomatlashtirilgan tizimlar sanoat, xizmat ko'rsatish va hatto tahlil, hujjat yuritish kabi aqliy mehnat talab qilinadigan sohalarda ham ko'plab ishlarni inson o'rniga bajara oladi. Bu esa, ayniqsa, kam malakali ishchilarning bozor qiymatini pasaytiradi. Xususan, kassir, haydovchi, operator, kadrlar bo'limi xodimi kabi kasblar AI texnologiyalari bilan almashtirilishi mumkin. Bu esa ishsizlik darajasining oshishiga, ijtimoiy tengsizlikning chuqurlashishiga olib keladi.

2) bugun shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishi sun'iy intellekt yordamida amalga oshirilayotgan kuzatuv va ma'lumotlar yig'ish tizimlari orqali sodir bo'lmoqda. Ko'plab kompaniyalar foydalanuvchilarning internetdagi harakatlarini, qiziqishlarini, hatto suhbatlarini kuzatib, katta ma'lumot (Big Data) yig'ishadi. Ushbu ma'lumotlar AI tomonidan tahlil qilinib, reklamalar yo'naltiriladi yoki qaror qabul qilish tizimlarida ishlatiladi. Bu esa, shaxsiy erkinlikni cheklash va insonlarni manipulyatsiya qilish xavfini tug'diradi.

3) sun'iy intellektda noto'g'ri algoritmlar (bias) mavjudligi diskriminatsiya va adolatsizlikni keltirib chiqaradi. AI tizimlari o'z qarorlarini ularni o'rgatgan ma'lumotlarga asoslanib qabul qiladi. Agar o'rgatilgan ma'lumotlar noto'g'ri yoki noteng bo'lsa, AI ham noto'g'ri qaror chiqaradi. Masalan, AQShda ishlatilgan AI asosidagi sud yordamchilari qora tanli fuqarolarga nisbatan adolatsiz yondashgan – bu esa algoritmik irqchilik deb atalmoqda. Bu holat sun'iy intellektga to'liq ishonib bo'lmasligini va inson nazoratining zarurligini ko'rsatadi.

4) sun'iy intellekt orqali yaratilayotgan soxta kontentlar (deepfake, generativ media) haqiqat va yolg'on o'rtasidagi chegarani yo'q qilmoqda. Deepfake texnologiyalari yordamida biror shaxsning yuzini, ovozi va hatto harakatlarini sun'iy tarzda yaratish mumkin. Bu texnologiya quvnoq videolar yoki ijodiy loyihalar uchun ishlatilishi mumkin, biroq siyosiy manipulyatsiyalar, tuhmat, firibgarlik va jinoiy ishlar uchun ham ishlatilmoqda. Yolg'on yangiliklar (fake news) orqali jamiyatda tartibsizliklar, noto'g'ri qarorlar va ijtimoiy ziddiyatlar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

5) sun'iy intellekt qurollanishda qo'llanilishi – eng xavfli salbiy oqibatlardan biridir. Chunki, AI yordamida ishlaydigan dronlar, avtonom qurollar, kuzatuv tizimlari urushda inson ishtirokisiz qaror qabul qilish imkonini beradi. Bu esa halokatli natijalarga olib kelishi

mumkin. Inson hissiyoti va axloqiy mezonlardan yiroq bo'lgan AI tizimi, o'q otish yoki yo'q qilish qarorlarini avtomatik ravishda qabul qilsa, bunga kim javobgar bo'ladi? Bu savol hozircha ochiq qolmoqda va global miqiyosda xavotir uyg'otishi kerak.

6) sun'iy intellektning inson aqliy va emotsional holatiga ta'siri ham oshib bormoqda. Masalan, AI bilan haddan tashqari aloqa va texnologiyaga qaramlik insonning ijtimoiy aloqalarini, mustaqil fikrlash qobiliyatini, hissiy ifodalanishini susaytirishi mumkin. Ayniqsa, bolalar va yoshlar o'rtasida AI yordamida ishlaydigan virtual do'stlar, o'yinlar va ijtimoiy tarmoqlarning haddan tashqari ishlatilishi real dunyodan uzilish, yolg'izlik va ruhiy tushkunlikka uchrashiga sabab bo'lmoqda.

Adabiyotlar/Literatura/References

1. Mäntymäki M. et al. Putting AI ethics into practice: The hourglass model of organizational AI governance // arXiv preprint arXiv:2206.00335. 2022. –P.201-205
2. Eisenberg I. W., Gamboa L., Sherman E. The Unified Control Framework: Establishing a Common Foundation for Enterprise AI Governance, Risk Management and Regulatory Compliance // arXiv preprint arXiv:2503.05937. – 2025. –P.97-103
3. Turing A.M. Computing machinery and intelligence // Parsing the Turing test: Philosophical and methodological issues in the quest for the thinking computer. – Dordrecht : Springer Netherlands, 2007. –P. 23-65.
4. Simon H. A. The Sciences of the Artificial, reissue of the third edition with a new introduction by John Laird. – MIT press, 2019. –P. 180-189.
5. Wiener N. Cybernetics or Control and Communication in the Animal and the Machine. – MIT press, 2019. –P. 55-61.
6. Floridi L. The ethics of information. – Oxford University Press (UK), 2013. –P. 100-109.
7. Shexroz D. Sun'iy intellekt–inson yordamchisimi yoki tahdidi? // " YURT FAXRI". 2025. –T. 1. – №.1 –B.2-3
8. McCarthy J. et al. What is artificial intelligence. 2007. –P. 17-21.
9. Киселёв Д.Е. Искусственный интеллект-понятие и история становления // Современные тенденции развития образования, науки и технологий. 2018. –С. 196-198.
10. Jiang Y. et al. Quo vadis artificial intelligence? //Discover Artificial Intelligence. 2022. – T. 2. –№. 1. –P. 4.
11. Shexroz D. Sun'iy intellekt–inson yordamchisimi yoki tahdidi? // " YURT FAXRI". 2025. –T. 1. – №.1 –B.2-3

HUMANSIENCES.UZ

No 2 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com